


✓

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60110100 – Pedagogika
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining
MALAKA TALABI

Toshkent-2025



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2025-yil “___” _____ dagi ___ - sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy
ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatning tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatning obyektlari	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatning turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar	10
	Kelishuv varog‘i	11

1. Umumiy tavsifi

60110100-Pedagogika ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalvrlar tayyorlash kunduzgi shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalvriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo’llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talabi 60110100-Pedagogika ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalvrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalvriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

umumiy o’rta ta’lim va ixtisoslashgan maktab o’qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o’rta ta’limda “Tarbiya” fani o’qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

o’rta maxsus va professional ta’limda pedagogika fani o’qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

umumiy o’rta ta’lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta’lim muassasasini boshqarish;

yoshlar bilan ishlash sohalarida;

mahallalarda yoshlar yetakchisi;

mehribonlik uyi tarbiyachisi;

ta’limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida uslubchi bo’lib faoliyat olib borish;

umumiy o’rta ta’lim maktabi, professional ta’lim muassasalari, oliy ta’lim muassasalarida kabinet mudiri, tyutor sifatida faoliyat yuritish kabi kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:

umumiy o’rta, o’rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi idoralarda;
ta’limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida;

mahalliy o’z-o’zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma’naviyat va ma’rifat markazlarida.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma’naviy-ma’rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60110100 – *Pedagogika* ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo’lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

o’quv jarayonini rejalashtirish: DTS va MO’Dlarining maqsadlariga muvofiq o’quv reja ishlab chiqish, o’quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o’quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko’ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o’quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish.

ta’lim samaradorligini ta’minlash: dars maqsadlariga ko’ra o’quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to’g’ri rejalashtirish, ta’lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o’quvchilarning o’zlashtirish natijalariga ko’ra darsni tashkil etish va ta’lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o’quvchilarning ta’limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o’qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o’qitishning faol usullaridan foydalanish, o’quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko’nikmalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan usullardan foydalanish, o’quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish, o’z-o’zini nazorat qilish ko’nikmalaridan foydalanish, o’quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg’unligini ta’minlash, o’quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish.

o’zlashtirishni baholash va qayta aloqani tashkil etish: ta’lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta’lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta’lim natijalarini tahlil qilish, dars rejasini va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo’llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va tahlil qilish.

tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish: tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg’ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo’llash, tarbiyaviy ishlarda o’quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual

xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muhitni yarata olish, o'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish.

xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash: O'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish.

o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish: muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish.

hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish: o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalb qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

tarbiya fanlariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiq etish;

tarbiya fanini o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

pedagogikaga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantiruvchi metod va texnologiyalarni bilish hamda amaliyotda qo'llay olish;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

raqamli savodxonlik, kibermadaniyat va internet xavfsizligi bo'yicha tushunchalarni shakllantirish;

akademik halollik tamoyillariga rioya qilish, plagiatga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish;

o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, o'z yurtining tarixiy merosi, qadriyatlari, buyuk ajdodlari va hozirgi taraqqiyot yo'lini chuqur anglashga yordam berish;

ommaviy axborot vositalarida tarqalayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish va baholashga o'rgatish;

axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan xavfsiz va ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

kasbiy axloq etikasiga rioya qilish;

pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

kasbiy muammolar yechimini topish;

internet saytlarini yaratishda til me'yorlarini belgilash;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish;

ta'limda inkluzivlikni ta'minlash, nogironligi bo'lgan o'quvchilar bilan alohida yondashuv asosida ishlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar

kasbiy faoliyatda pedagogikaning asosiy qonunlari va tamoyillaridan foydalana olishi, matematik-statistik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olish;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va me'yorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli, izchil va aniq bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash hamda ifodalay olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish hamda kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olish;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakteristikasini o'zgartirishga qodir bo'lish;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi hamda tarbiya darslarida texnika xavfsizligini ta'minlash va xavfsiz o'tkazish;

gigiyena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, ekologik tarbiya va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalari shakllantirish;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni hamda

mediasavodxonlik, global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy, mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlarini faoliyatda samarali qo'llay olishi;

shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglashi hamda tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirish;

o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tadbiq etish;

ta'lim jarayoni subyektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallash;

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg'unligini, tizimli va uzluksizligini ta'minlash;

inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika);

ta'lim oluvchilarda o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchan, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga, natijaviylikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatli bo'lish;

texnik jihatdan tartibga solish va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va professional faoliyatida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish ko'nikmasiga ega bo'lishi.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va professional ta'lim o'quv jarayonlari, mehribonlik uylari, ijtimoiy institutlar faoliyati bilan uyg'unlashtirish.

Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 5-8-semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kuni nazariy va amaliy ta'lim, 2 kuni umumiy va o'rta ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyotlari
2. Pedagogik amaliyot
3. Bitiruv oldi amaliyoti

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar*			
1.01.	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1, 2
1.02.	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.03.	MSVAX1205	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	2
1.04.	O'RT 1106	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilini sohada qo'llanilishi	180	6	1
1.05.	FAL1204	Falsafa	120	4	2
1.06.	PedNT11211	Pedagogika nazariyasi va tarixi	330	11	1,2
1.07.	MTA1106	Milliy tarbiya asoslari	180	6	1
1.08.	MutKir11210	Mutaxassislikka kirish	300	10	1,2
1.09.	TDK 13410	Tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi	300	10	3,4
1.10.	ITGP1405	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	4
1.11.	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.12.	IjPed13410	Ijtimoiy pedagogika	300	10	3,4
1.13.	Yuno1306	Yunogogika	180	6	3
1.14.	Etped 1405	Etnopedagogika	150	5	4
1.15.	OPed13410	Oila pedagogikasi	300	10	3,4
1.16.	KrP15609	Kreativ pedagogika	270	9	5,6
1.17.	PM1605	Pedagogik mahorat	150	5	6
1.18.	TFO'M15608	Tarbiya fanini o'qitish metodikasi	240	8	5,6
1.19.	KomPed1504	Komparativistik pedagogika	120	4	5
1.20.	IBO'T1705	Iqtidorli bolalarni o'qitish texnologiyasi	150	5	7
1.21.	PM17810	Pedagogik menejment	300	10	7,8
1.22.	NeyPed1804	Neyropedagogika	120	4	8
1.23.	Pedtex1705	Pedagogik texnologiya	150	5	7
		Jami:	4680	156	3-8
2.00		Tanlov fanlari	1020	34	3-8
Kvalifikatsiya:		Tarbiya fani o'qituvchisi.			
		Malakaviy amaliyot	1320	44	2, 5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		HAMMASI	7200	240	

*- Mazkur ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalarining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

Izoh: Belgilangan umumiy soat o'zgartirilmaydi.

Bibliografik ma’lumotlar

UDK 371.0

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch soʻzlar:


Davlat ta’lim standarti, malaka talablari, oʻquv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, pedagog, tarbiya fani oʻqituvchisi, pedagogika, tarbiya fanini oʻqitish metodikasi, majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyot, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi

Kelishuv varag'i

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Rektor v.v.b.  Raxmanov

2025-yil «  »

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  A.Xoliqov

2025-yil «  »

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi


Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
huzuridagi


Respublika ta'lim markazi

Direktor v.v.b.  D.Norboyeva

2025-yil «  »

M.O'.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Rektor  G.Muxamedov

2025-yil «  »

M.O'.

Guliston davlat pedagogika instituti
Rektor  J.Karshibayev

2025-yil «  »

M.O'.